



## ISAJON SULTONNING “TURMUSH” HIKOYASIDA MAISHIY REALLIK VA METAFORIK OLAM TALQINI

**Rixsiboyeva Shahodat  
Qudratovna**

*Nizomiy nomidagi O‘zMPUning Filologiya  
fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 4-  
bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada taniqli adib Isajon Sultonning “Turmush” hikoyasi tahlil qilingan. Asarda insonning kundalik turmush tashvishlari va bu tashvishlar ortiga yashiringan ma’naviy-ruhiy dunyosi o‘rtasidagi ziddiyatlar tadqiq etiladi. Hikoyadagi ramziy tushlar, erkak va ayol obrazining ijtimoiy-psixologik qiyofasi hamda asarning falsafiy yakuni yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Isajon Sulton, turmush, ramz, tush, psixologizm, ijtimoiy yuk, ota obrazi, ayol matonati, qiyomat.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Isajon Sulton o‘z asarlarida inson qalbining eng nozik qirralarini kashf etishga intiladi. Adibning “Turmush” hikoyasi ham mavzu jihatidan oddiy bo‘lib ko‘rinsa-da, mohiyat e‘tibori bilan chuqur ontologik masalalarni qamrab oladi. Hikoyada oiladagi maishiy munosabatlar shunchaki voqelik emas, balki insonning bu dunyodagi “imtihoni” va “vazifasi” sifatida talqin qilinadi.

Hikoyaning boshlanishi juda tanish va hayotiy. Ishdan charchab kelgan ota, ro‘zg‘or g‘ami bilan tinkasi qurigan ona va o‘smirlik qaysarligi tutgan o‘g‘il. Muallif personajlar orqali hayotning “beti”ni ko‘rsatadi: Ota obrazi charchoqdan asabiy, erlik g‘ururi bilan yer chopilmaganidan norozi.

Ona obrazi esa bir lahza tinim bilmaydigan, mehnatdan yuzi jigarrang bo‘lib ketgan, ammo mehri ko‘zlarida kulib turgan ayol. O‘g‘il esa otasiga gap qaytarayotgan, erkinlikka intilayotgan yosh avlod vakili. Ular bir-birlarini tushunmayotgandek, bir-birlaridan norozidek ko‘rinadi. Er xotinidan “ochiq chehra” kutsa, xotin eridan “shirin so‘z” kutadi.

Hikoya ekspozitsiyasida charchagan insonlar qiyofasi beriladi. Ota tashqi dunyodan, mehnatdan horg‘in qaytgan. Ona - ro‘zg‘orning cheksiz yumushlaridan toliqqan. Muallif bu yerda “realistik detallar” ustiga urg‘u beradi: yerning chopilmagani, charchoqdan zirqiragan bel, ayolning quyoshda qoraygan yuzi. Bu detallar qahramonlarning bir-biriga nisbatan asabiylashishi uchun zamin bo‘ladi. Erkak ayolidan go‘zallik va ochiq chehra kutadi, ayol esa o‘z navbatida tushunilishni istaydi.

Qalbning ichki qiyofasi: Hikoyaning eng muhim qismi qahramonlarning ko‘rgan tushlaridir. Bu tushlar ularning hayotdagi haqiqiy qiyofasini ochib beradi: Erning

tushida: Ayoli jannatliy malak qiyofasida namoyon bo'ladi. Er xotining naqadar muqaddas ekanini, uning butun umrini eriga xizmat qilishga bag'ishlaganini anglaydi.

Ayolning tushida: Eri - oilani bo'ronlardan, qiyinchiliklardan himoya qilgan, urila-urila toshga aylangan ulkan qoya. Bu obraz erning oila yukini ko'tarib yurgan qahramonligini ramziy ifodalaydi.

Qizaloqning tushi: Eng ta'sirli va dahshatli tasvir. U "tiriklayin ko'milgan qizlar"ni va qiyomat yaqinligini ko'radi. Bu yerda "turмуsh degan tuproqqa tiriklayin ko'milish" iborasi orqali ayolning hayoti faqat mehnat va fidoyilikdan iborat ekaniga ishora qilinadi. Ayollar turmush degan tuproqqa o'z orzulari, go'zalliklari va shaxsiy istaklari bilan birga ko'milib ketadilar. To'g'ri hozirgi zamonda ayollar ham o'z orzu istaklarini amalga oshirishyapti, rivojlanishyapti lekin hammasi ham emas. Juda ko'p ayollar turmush, bola-chaqa, oilam deb o'z orzularidan kechib hatto go'zalliklarini ham yo'qotishyapti.

Aslida ayollar ham insonku ularning ham shaxsiy istaklari mavjud. Lekin turmush ayollarni ham erkaklarni ba'zi orzu-istaklaridan kechishga majbur qiladi. Hikoyaning eng kulminatsion nuqtasi tushdagi hayqiriq: "Qiyomatdan so'ng ham birga bo'lishni istaysizmi?" degan savolga tushdagi er va xotinning "Yo'q-yo'q, aslo!" deb baqirishi. Bu hayotning naqadar og'irligidan, insonlar bir-birini qanchalik charchatganidan dalolat beradi.

Tushdagi "Qiyomat yaqin" degan hayqiriq insonlarni uyg'onishga, bir-birining qadriga yetishga, bir-birini his qilishga chaqiradi. Biroq, tong otganda hammasi yana o'z iziga tushadi. Ular tushlarini eslay olmaydilar, yana o'sha oddiy tashvishlar boshlanadi. Lekin bu "oddiy" hayot ortida bir-birini asraydigan, biri - tosh bo'lib himoya qiladigan, ikkinchisi - nur bo'lib xizmat qiladigan insonlar turibdi.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton "Turmush" hikoyasi orqali o'quvchiga shunday xulosani beradi: biz kundalik hayotda bir-birimizga gapirolmagan, ko'rsata olmagan mehrimizni aslida qalbimiz tubida saqlaymiz. Turmush - bu faqat yer chopish yoki ovqat qilish emas, bu bir-birining og'irini yengil qilish, bir-biriga "omonat" sifatida qarash, bir-birini his qilish, tushunish, lahzalardan baxtli bo'la olish ya'ni insonlar bir-birini yo'qotmasidan oldin qadriga yetish, bir-biriga to'yib olish, hayot, turmush faqat mehnat qilishdan iborat emasligini tushunishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sulton, I. (2012). Tanlangan asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
2. Rasulov, A. (2010). Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
3. Ziy o istagan qalblar uchun! portali (n.ziyouz.com)